

Kredit mahsuloti pasporti				
Kredit mahsuloti nomi	BIZNES IPOTEKA			
Kredit turi	Kredit liniyasi ochmasdan			
Kredit maqsadi	Tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish va rivojlantirish maqsadida birlamchi hamda ikkilamchi bozordan turar va noturar bino-inshootlarni (<i>bino-inshootlar uskunalar bilan kompleks holatda bo'lgan binolarni sotib olish uchun kredit mablag'lari ajratilmaydi</i>) sotib olish maqsadida			
Kredit oluvchilar	Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan yoki shug'ullanish istagida bo'lgan yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari/yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.)			
Kredit miqdori	Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari		Yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan tadbirkorlik subyektlari (YATT, OT, XT va xk.)	
	5 000 000 000,0 (Besh milliard) so' mgacha		3 000 000 000,0 (Uch milliard) so' mgacha	
Mahsulotni taqdim etish shakli	Kredit mablag'lari mijozning ssuda hisobvaragidan pul mablag'larini o'tkazish yo'li orqali ajratiladi;			
Kredit valyutasi	O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasi yoki xorijiy valyuta (loyiha ko'rib chiqilayotgan kundagi Markaziy Bankning rasmiy valyuta kursi bo'yicha aniqlangan) ekvivalentida (*)			
Kredit muddati	36 oy muddatgacha	48 oy muddatgacha	60 oy muddatgacha	84 oy muddatgacha
Milliy valyutada foiz stavkasi	22,99% dan kam bo'lmagan	24,99% dan kam bo'lmagan	25,99% dan kam bo'lmagan	26,99% dan kam bo'lmagan
AQSH dollarida foiz stavkasi yillik (*)	13,50 % dan kam bo'lmagan	14,00 % dan kam bo'lmagan	14,50 % dan kam bo'lmagan	15,50 % dan kam bo'lmagan
Yevroda foiz stavkasi yillik (*)	11 % dan kam bo'lmagan	11,5 % dan kam bo'lmagan	12 % dan kam bo'lmagan	13 % dan kam bo'lmagan
Boshlang'ich to'lov	Dastlabki va notarial oldi-sotdi shartnomasi qiymatining 25 foizidan kam bo'lmagan			
Imtiyozli davr	8 oy muddatgacha			
Kreditni so'ndirish tartibi	Differentsial/Annuitet			
Kredit mahsuloti bo'yicha kredit mablag'lari ajratish ketma-ketligida amalga oshiriladigan asosiy jarayonlar	<p>1. Qarz oluvchi tomonidan sotib olinishi rejalashtirilgan ko'chmas mulk bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilot hisoboti taqdim etiladi. Baholash hisoboti qonun talablariga javob bermagan yoki baholovchi tomonidan belgilangan mulk qiymatining bozor bahosiga to'g'ri kelishiga shubha tug'ilgan hollarda, boshqa mustaqil baholovchi tashkilot tomonidan tavsiyaviy xulosa olinishi mumkin;</p> <p>2. Sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasida dastlabki oldi-sotdi shartnoma rasmiylashtiriladi. Dastlabki va notarial oldi-sotdi shartnomasi miqdori hisobotda ko'rsatilgan miqdordan ko'p bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Bunda oldi-sotdi amaliyotlari notarial tartibda amalga oshirilishi shart;</p> <p>3. Kredit mahsulotini ajratish ma'qullanishidan oldin kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulk Bank tarkibiy bo'linmasi (Amaliyot boshqarmasi/MBXO) xodimlari tomonidan joyiga chiqib o'rgani ladi, mijoz bilan kelishgan holda dastlabki tavsiyaviy garov bahosi miqdori belgilanadi;</p> <p>4. Kredit ajratilishi ma'qullangandan so'ng kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulkning garov qiymati Bankning ichki me'yoriy xujjatlari talablariga asosan aniqlanadi va tegishli baholash dalolatnomasi orqali rasmiylashtiriladi;</p> <p>5. Qarz oluvchi tomonidan dastlab boshlang'ich badal to'lovi amalga oshiriladi, kredit shartnomasi imzolaniadi hamda Bankning tarkibiy bo'linmasi (Amaliyot boshqarmasi/MBXO) rahbariyati tomonidan kafolat xati taqdim etiladi. Ushbu kafolat xatiga asosan ko'chmas mulk qarz oluvchi nomiga rasmiylashtirilib, o'rnatilgan tartibda garovga taqdim etiladi.</p> <p>6. Kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulk bo'yicha Qarz oluvchi va Bank o'rtasida imzolangan kredit shartnomasi asosida notarial tarzda garov shartnomasi rasmiylashtiriladi, garov mulkiga tegishli ta'qiq qo'yiladi va shundan so'ng kredit mablag'lari ajratiladi.</p>			
Kredit qarzdorligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash	Mijozning Bank oldida kredit qarzdorligi mavjud bo'lgan taqdirda jami qarzdorlik yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 5,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summadan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.) bo'yicha 3,0 mlrd. so'mdan oshmasligi lozim. Shuningdek, nazorat asosida bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami qarzdorlik 7,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasi oshmasligi lozim.			
Kredit ta'minoti	<p>1. Kredit hisobiga sotib olinayotgan ko'chmas mulk, dastlabki oldi-sotdi shartnomasi qiymatining 70 foizidan oshmagan miqdorda garov sifatida rasmiylashtiriladi;</p> <p>2. Garov ta'minoti umumiy hisobda kredit summasi 125 foizidan (Aloqador shaxslar uchun 130 foizidan) kam bo'lmagan miqdorini tashkil etishi lozim, ta'minotning yetmagan qismi uchun qo'shimcha mol-mulk garovi, sug'urta kompaniyasining kreditning qaytmasligi xataridan sug'urta polisi yoki uchinchi shaxslarning kafilligi (bunda uchinchi shaxslarning kafilligi taqdim etilganda "Asia Alliance Bank ATBda kredit xizmatlari bo'yicha mijozlarning majburiyatlari bajarilishida ta'minotlarni qabul qilish tartibi" talablariga asosan qabul qilinadi) taqdim etilishi mumkin.</p>			
Talab etiladigan hujjatlar	<p>Yuridik shaxslardan talab etiladigan hujjatlar:</p> <p>1. Kredit arizasi, ta'xis hujjatlari, korxon ta'xischilari va rahbariyati ma'lumotlari, kredit olish va/yoki garov ta'minotini taqdim etish yuzasidan ta'xischilar roziligi/qarori;</p> <p>2. Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2-shakl operativ); balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa ma'lumotlar;</p> <p>3. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holdagi kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab beruvchi hisob kitoblar;</p> <p>4. Garov bilan bog'liq hujjatlar;</p> <p>5. Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar.</p> <p>Yakka tartibdagi tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar:</p> <p>1. Kredit arizasi, guvohnoma, pasport nusxasi, faoliyat ko'rsatayotgan joyi yuzasidan tasdiqlovchi hujjatlar;</p> <p>2. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holda kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab ko'rsatib beruvchi hisob kitoblar hamda loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar;</p> <p>3. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko'rsatilgan holdagi kredit mablag'larining qaytarilishini asoslab beruvchi hisob kitoblar;</p> <p>4. Garov bilan bog'liq hujjatlar;</p> <p>5. Loyihani amalga oshirish bilan bog'liq boshqa hujjatlar.</p>			
Mijozga qo'yiladigan talablar	<p>1. Operativ sanaga Qarzdorning moliyaviy natijalar bo'yicha hisoboti (2-shakl) faoliyati zarar bilan yakunlanmagan bo'lishi lozim. Agarda, Qarzdorning faoliyati natijalari zarar bilan yakunlangan bo'lsa va u haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno;</p> <p>2. Operativ sanaga Qarzdorning o'z aylanma mablag'lari mavjudligi manfiy ko'rsatkichda bo'lmashligi lozim. Agarda, Qarzdor tomonidan ushbu ko'rsatkichlar haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno;</p> <p>3. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmashligi;</p> <p>4. Kreditlar bo'yicha ohiri 12 oy ichida:</p> <p>30+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 2 tadan ko'p bo'lmashligi;</p> <p>60+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 1 tadan ko'p bo'lmashligi;</p> <p>90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmashligi;</p> <p>5. Nazorat asosida q'zaro aloqador korxonalarining "Asia Alliance Bank" ATB tizimida muddati o'tgan kredit qarzdorliklari mavjud bo'lmashligi;</p> <p>6. Nazorat asosida qarz oluvchini kredit tarixi to'g'risidagi (KATM) ma'lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o'zaro aloqador korxonalarining "Asia Alliance Bank" ATB tizimida "qoniqsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarida tasniflangan amaldagi kreditlari mavjud bo'lmashligi;</p> <p>7. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda amaldagi kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik va kreditga hisoblangan foiz qarzdorliklari bo'yicha oraliq hamda yakuniy</p>			

to'lov muddatlarini uzaytirish holatlari bo'lmastligi;

8. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kollegial organ tomonidan/mavjud majburiyatlari boyicha belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari (umumiy jihatdan bajarilmaganligi, boshqa holatlari ya'ni muddatida bajarilmaganligi mustasno) mavjud bo'lmastligi;

9. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo'lmastligi lozim. (Maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar bo'yicha maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag'larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo'lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo'yicha ushbu shart qo'llanilmaydi);

10. Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmastligi lozim;

11. Ohirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda so'rovnoma ko'rib chiqilib, rad etiladi.

Qo'shimcha shartlar

1. Yaqin qarindoshlar o'rtasida oldi - sotdi shartnomalari bo'yicha ipoteka kreditlari ajratilishi (ota, ona, aka, uka, opa, singil, bobo, buvi va nabira) Shuningdek, sotib olinayotgan uy-joyning hozirda egalik qilayotgan sotuvchiga avvalgi egasidan egalik huquqi o'tganligiga (sotuvchiga uy-joyni sotgan, xadya qilgan yoki meros qoldirgan fuqaro) 1 yil to'lmagan bo'lsa, eski egasi qarz oluvchi bilan qarindoshlik darajasi o'rganiladi va yaqin qarindoshligi aniqlansa ipoteka kreditlari ajratilishi taqiqlanadi.

2. Kredit ta'minoti sifatida kafilligi taqdim etilayotgan tadbirkorlik subyektlarining hamda garovga qo'yuvchilarning "Asia Alliance Bank" ATB tizimida 2-sonli kartoteka qarzdorligi hamda Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi (Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi bundan mustasno) bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' mavjud bo'lmastligi lozim;

3. Ushbu kredit mahsuloti orqali kredit mablag'lari sug'urta kompaniyasi kredit qaytmaslik xatari sug'urta polisi mukofot to'lovi, noturar bino-inshootlar va turar joylar boshlang'ich to'lovi amalga oshirilgandan so'ng hamda noturar bino-inshootlar va turar joylarni o'rnatilgan tartibda garovga taqdim etilgandan so'ng ajratiladi hamda mazkur shartlar kredit shartnomasi bandlariga ko'rsatib o'tilishi lozim;

4. Qurilishi tugallanmagan bino-inshootlar, parrandachilik va issiqxona komplekslari, bekatdagi do'konlar, molxona binolari, bog'lar, ko'p qavatli turar joyning alohida holatdagi yerto'lasini (birinchi qavat bilan birgalikda garovga taqdim etish holatlari bundan mustasno) kredit va garov obyekti sifatida ko'rilishiga yo'l qo'yilmaydi;

5. Ko'chmas mulklarni auksion orqali sotib olishga yo'l qo'yilmaydi;

6. Kredit mablag'larining maqsadli ishlatilishi o'rganilmaydi, kredit hisobiga sotib olingan ob'jektning garovga taqdim etilishining o'zi asos bo'ladi;

7. Qarz oluvchini "Asia Alliance Bank" ATB tizimida faqatgina sug'urta polisi ta'minoti asosida berilgan kreditlar miqdori umumiy qiymatda 500,0 mln.so'mdan oshmasligi lozim. Shuningdek nazorat asosida bir qarzdor yoki o'zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda ta'minotida faqatgina sug'urta polisi bo'lgan umumiy kreditlari qoldig'i 1,0 mlrd.so'mdan oshmasligi lozim.

8. Kredit miqdori yuqorida belgilangan limitlardan ortiq bo'lgan, foiz stavkasi mazkur mahsulot Pasportida belgilangan miqdorlardan past bo'lgan va yoki kreditlash shartlari mazkur kredit mahsuloti Pasportida ko'satilganidan boshqacha bo'lgan buyurtmanomalar Modulli kreditlar sifatida qabul qilinmaydi.